



UDK:372.8

Dilrabo KURBANOVA,
Guliston davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
E-mail: kurbanovadilrabo858@gmail.com

GDPI dotsenti, PhD R.Xayrov taqrizi ostida

IMPORTANT ASPECTS OF IMPROVING THE PEDAGOGICAL READINESS OF PRIMARY SCHOOL TEACHERS TO TEACH THE DISCIPLINE OF EDUCATION

Annotation

In this article, great importance is attached to the current state of teaching methods of the discipline of education in higher education institutions, the analysis of existing opinions and approaches among students and teachers, the need to develop new methodological and pedagogical approaches aimed at improving its effectiveness. In this regard, this article aims to analyze the current state of teaching methods of educational science in higher education institutions and identify ways to improve it.

Keywords: Values of education, axiology, axiological competence, national value, communication, integrativity, orientation to practice, personalization.

ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ ПОВЫШЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ГОТОВНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ К ПРЕПОДАВАНИЮ ДИСЦИПЛИНЫ ВОСПИТАНИЕ

Аннотация

В данной статье большое значение придается текущему состоянию методики преподавания дисциплины воспитание в высших учебных заведениях, анализу существующих мнений и подходов среди учащихся и преподавателей, необходимости разработки новых методических и педагогических подходов, направленных на повышение ее эффективности. В связи с этим данная статья призвана проанализировать современное состояние методики преподавания воспитательной науки в высших учебных заведениях и определить пути ее совершенствования.

Ключевые слова: Ценности воспитания, аксиология, аксиологическая компетентность, национальная ценность, коммуникативность, интегративность, ориентация на практику, персонализация.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI TARBIYA FANINI O'QITISHGA PEDAGOGIK TAYYORGARLIGINI OSHIRISHNING MUHIM JIHATLARI

Annotatsiya

Maqolada oliy ta'lim muassasalarida tarbiya fanini o'qitish metodikasining bugungi holati, talabalar va o'qituvchilar o'rtasida mavjud fikr va mulohazalar tahlil qilinish, uning samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan yangi metodik va pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarbligiga katta ahamiyat qaratilgan. Shu nuqtai nazardan, mazkur maqola oliy ta'lim muassasalarida tarbiya fanini o'qitish metodikasining hozirgi holatini tahlil qilish va uning takomillashtirish yo'llarini aniqlashni maqsad qilingan.

Kalit so'zlar: Tarbiya qadriyatlar, aksiologiya, aksiologik kompetensiya, milliy qadriyat, muloqot, integrativlik, amaliyotga yo'naltirish, shaxsiylashtirish.

Kirish. Yurtimizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan ta'limni tizimidagi modernizatsiyalash jarayoni o'zi bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlash mexanizmlarini rivojlantirish zarur ekanligini ko'rsatmoqda. Ta'lim tizimidagi islohotlarning bugungi bosqichida bu jarayonlar barcha pedagoglardan o'z kasbiy faoliyatlarini innovatsion yondashuv asosida tashkil qilish, kasbiy bilim va malakalarini uzluksiz rivojlantirish, shuningdek, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan yanada samaraliroq foydalanish, didaktik, metodik yondashuvlarni modernizatsiyalash (yangilash)ni talab etadi. Bu esa, bo'lajak o'qituvchilarning yaqin kelajakdagi faoliyatlarini samarali, intensiv va raqobatbardosh bo'lishini ta'minlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yuqoridagi masalalarni amalga oshirish borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi [1], 2019 yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimi 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi

Farmonlari [2], 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi [3], 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi [4] qarorlari ta'lim-tarbiyani butunlay yangi asosda qayta qurish hamda uning samaradorligini keskin oshirish talabini qo'ydi. Bu masalaning yechimiga bo'lajak o'qituvchining pedagogik tayorgarligini yanada takomillashtirish orqali erishish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan vazirlar mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida "tajribali pedagog va mutaxassislarni jalb etgan holda, o'quv reja va dasturlarni tubdan qayta ko'rib chiqish zarur. Oldimizda yoshlarga tarbiya berish, psixologiya va boshqa turli sohalarida kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash

bo'yicha murakkab vazifalar turibdi" deb ta'kidlab o'tdilar [5]. Demakki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining zamonaviy bilimlarni egallashlari, innovatsion pedagogik hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan samarali foydalana olish ko'nikmasini shakllanishi va malakalarini hosil bo'lishi, ularning kelajakda o'z yo'lini to'g'ri tanlay olishga e'tibor qaratish har bir professional pedagog oldida turgan ma'suliyatli vazifalardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi [1] Farmonida "ta'lim sifatini oshirishni nazarda tutuvchi milliy dasturi ishlab chiqish va amalga oshirish"ga doir belgilangan vazifalardan kelib chiqib, fanlar bo'yicha davlat ta'lim standartlarini, o'quv dasturi va rejalari yangilash, o'qitishni sifat va mazmun jihatidan yanada takomillashtirish zarurdir.

Ta'lim tizimini yangitdan rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan huquqiy-me'yoriy hujjatlarning [1] barchasida sohalarida innovatsion ta'limiy texnologiyalarni qo'llash hamda xorijiy tajribalarni o'zlashtirish, ijodiy yondashuvlarni qo'llab-quvvatlash, ta'lim turlari orasida integratsiya jarayonini kuchaytirish umumiy jihatlardan biridir.

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunda ta'lim tizimidagi mavjud kamchiliklarni chuqur tahlil qilish, natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, pedagogik ta'lim yo'nalishlarini muvofiqlashtirish (optimallashtirish), istiqbolni rejalashtirish, ta'lim bosqichlari o'rtasidagi o'zaro aloqa va integratsiyaning pastligi, ta'lim subyektlari faoliyatidagi tarqoqlik ta'lim sifatining pasayishiga olib kelmoqda. Shu sababli otmlarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik tayorgarligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bilan bog'liq yangi tizimni ustuvor strategik yo'nalishi sifatida belgilab olish va shu tizim asosida muayyan ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida jamiyatning barqaror rivojlanishidagi yuqori ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqqan holda zamonaviy talablar, tizimdagi muammolar va ularni hal qilishda fan va ta'lim bo'g'inlari o'rtasidagi aloqadorlikni ta'minlash uzluksiz pedagogik ta'limning faoliyatini sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish imkonini beradi. Zamonaviy ta'lim texnologiyaning kasbiy layoqatlilik darajasi asosida raqobatbardosh, yangiliklarni qabul qilish va texnologiyalarni loyihalash hamda amalga oshira olish qobiliyatiga zamonaviy ta'lim mutaxassislarini tayyorlash uchun birlashtirish zarur.

Olib borilgan tadqiqot jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik tayorgarligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishda aksiologik yondashuv asosida talqin etildi. Ushbu rivojlanish oliy ta'lim muassasalarining o'qitish jarayonidagi ta'limning maqsadi, mazmuni, innovatsion texnologiyalar, baholash va natijalarga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan chuqur tizimli o'zgarishlarni nazarda tutadi. Bu o'zgarishlar bugungi kun va kelajak uchun bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik tayorgarligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. oliy ta'lim tizimi zamonaviy jamiyatning asosiy tayanchlaridan biri sifatida, yoshlarning nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalarini, balki ma'naviy va ahloqiy fazilatlarini ham rivojlantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Ushbu jarayonda tarbiya fanining ahamiyati alohida e'tiborga molik. tarbiya fanining o'qitilishi, ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida talabalarning har tomonlama barkamol shaxs bo'lib shakllanishida muhim rol o'ynaydi. tarbiya faqatgina ahloqiy me'yorlar va qadriyatlar asosida talaba shaxsini shakllantirish bilan cheklanmaydi, balki uning jamiyatga, oilaga, davlatga bo'lgan munosabatini to'g'ri yo'naltirishda ham yordam beradi.

Tarbiya fani oliy ta'lim tizimining muhim tarkibiy atributidir. uning asosiy maqsadi, talabaning nafaqat kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, balki uning ijtimoiy, ahloqiy va ma'naviy kamolotini ta'minlashdir [12]. Pedagogik nuqtai nazardan, tarbiya jarayoni o'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro aloqalar, muloqot, va fikr almashish orqali amalga oshiriladi. tarbiya fanining pedagogik asoslari, avvalo, shaxsni rivojlantirishning boshqariladigan jarayoni sifatida qaraladi. Bu jarayon doirasida, talaba nafaqat o'zining shaxsiy fazilatlarini, balki jamiyat va uning qadriyatlariga munosabatini ham shakllantiradi.

Tarbiya fani o'qitishining asosiy metodologik prinsiplari quyidagilardan iboratdir:

Integrativlik: tarbiya fani faqat ahloqiy yoki ijtimoiy fan sifatida emas, balki barcha sohalarini birlashtiruvchi, integratsiyalashgan bilimlar tizimi sifatida qaraladi.

Amaliyotga yo'naltirish: tarbiya fani o'qitishda amaliy mashg'ulotlar, guruh muhokamalari va real hayotdagi vaziyatlar asosida o'qitish asosiy usullardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Shaxsiylashtirish: talabaning individual xususiyatlariga qarab metodlarni tanlash va har bir talabaning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash.

OTMlarda tarbiya fanini o'qitish metodlari turli pedagogik yondashuvlarni, innovatsion texnologiyalarni va talabaning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda shakllanadi. Tarbiya fani o'qitish metodlari, asosan an'anaviy, innovatsion, tajriba va hissiy metodlar yo'nalishlari asosida to'ldirib boriladi [13].

Oliy ta'limda tarbiya fanini o'qitishda, talaba nafaqat bilim oladi, balki shaxsiy rivojlanish yo'llarini ham kashf etadi. oliy ta'lim muassasalarida tarbiya fanining o'qitilishi, umumiy ta'lim tizimiga nisbatan bir qator farqlarga ega. Bu farqlarni quyidagi jihatlardan ko'rish mumkin:

Talabaning ma'naviy va ahloqiy rivojlanishiga yo'naltirilgan yondashuv: oliy ta'limda talabalar, ko'proq mustaqil fikrlash va qaror qabul qilishga o'rgatiladi. tarbiya fani, aynan shu jihatdan, ularni ijtimoiy mas'uliyat, inson huquqlari va ekologik masalalar bo'yicha bilgilarga ega bo'lishga undaydi.

Intellektual va shaxsiy salohiyatni rivojlantirish: oliy ta'limdagi tarbiya jarayoni, talabalar shaxsini o'stirish va ularning shaxsiy salohiyatini ochib berishga qaratilgan. Bu jarayonda o'qituvchilar talabalar bilan faqat bilim muallimi sifatida emas, balki ularning shaxsiy rivojlanishiga yo'naltiruvchi maslahat beruvchi sifatida ham muloqot qilishadi.

Ijtimoiy mas'uliyatni oshirish: oliy ta'lim muassasalarida tarbiya fani, talabalarni jamiyatdagi ijtimoiy mas'uliyatni his qilishga undaydi. ularni ijtimoiy va siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishga, shuningdek, ilmiy va madaniy faoliyatlarda o'zlarini namoyon qilishga o'rgatadi.

Oliy ta'lim muassasalarida tarbiya fanini o'qitish metodikasining bugungi holatini tahlil qilish ta'lim tizimining samaradorligini baholash, natijadorlikka yetish uchun muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda ko'pgina universitetlarda tarbiya fanini o'qitish an'anaviy metodlarga asoslangan. Bu metodlar orasida asosiy o'rinni leksiya, seminarlar va amaliy mashg'ulotlar egallaydi. tarbiya fanining darslarida ko'plab pedagogik materiallardan foydalaniladi, masalan, kitoblar, maqolalar, video materiallar va guruh ishlarning natijalari.

Tahlil va natijalar. Biroq, hozirgi metodikalar talabalar ehtiyojlariga to'liq javob bera olmayapti. Ko'plab universitetlarda tarbiya fanining o'qitilishi ko'pincha nazariy jihatlariga asoslanadi va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga yetarlicha e'tibor qaratilmaydi. Bundan tashqari, ba'zi universitetlarda tarbiya fanining o'qitilishi o'qituvchilarning

shaxsiy pedagogik tajribalari asosida olib boriladi, bu esa metodik bir xillikni ta'minlashda qiyinchiliklar tug'diradi. tarbiya fanini o'qitishda o'qituvchilarning metodik tayyorgarlik darajasi va yangi pedagogik yondashuvlarga qiziqish darajasi katta ahamiyatga ega. tarbiya fanini o'qitishda yangi yondashuvlar mavjud pedagogik tizimni yangilashga yordam beradi va talabalar o'rtasida ijtimoiy, axloqiy, ma'naviy ko'nikmalarni rivojlantirishda samarali natijalarga olib keladi. shu bilan birga, tarbiya fanining o'qitilishida har bir talabaga individual yondashuvni ta'minlash, uning shaxsiy ehtiyojlari, qiziqishlari va imkoniyatlariga asoslangan metodlarni tanlash muhimdir. shaxsiylashtirilgan ta'lim talabaning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olishni va uning ijtimoiy hayotga nisbatan mas'uliyatini oshirishni ta'minlaydi. Bundan tashqari fanni o'qitilishida pedagogik innovatsiyalarni joriy etish, yangi metod va texnologiyalarni kiritish orqali ta'lim tizimining sifatini oshirish mumkin. Bu innovatsiyalar o'qituvchilarni yangi pedagogik usullar bilan tanishtirish va ularni amaliyotda qo'llashni o'rgatish orqali amalga oshiriladi.

Tarbiya fani nafaqat o'quv muassasalarida, balki jamiyatda ham qo'llanishi kerak. talabalar o'quv jarayonida, o'zgaruvchan jamiyat sharoitida, ijtimoiy muammolarni hal qilishda faol ishtirok etishlari, o'zlarining jamiyat oldidagi mas'uliyatini his qilishlari kerak. Buning uchun oliy ta'lim muassasalarida o'qitilayotgan tarbiya fanida ijtimoiy va madaniy loyihalar, ijtimoiy faoliyatlar va volontyorlik dasturlarini tashkil etish mumkin.

Oliy ta'lim muassasalarida tarbiya fanini o'qitish metodikasining hozirgi holati, uning samaradorligini baholash va uni takomillashtirish zaruriyatini ko'rsatadi. tarbiya fanining o'qitish metodikasi, ayniqsa, talabalarning nafaqat kasbiy, balki ma'naviy-axloqiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. hozirgi kunda mavjud metodikalar ko'plab jihatlarida kamchiliklarga ega bo'lib, ayniqsa, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish va innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish sohasida muammolar mavjud.

Biroq, zamonaviy ta'limning barcha talablariga javob berish uchun Tarbiya fani o'qitish metodikasini yangilash va

innovatsion pedagogik usullarni qo'llash o'ta muhimdir. Interaktiv metodlar, multimedia vositalari, onlayn platformalardan foydalanish o'quv jarayonini yanada samarali qilish uchun alohida ahamiyatga egadir. Shuningdek, tarbiya fanining o'qitilishida talabalar va o'qituvchilarni yangi pedagogik texnologiyalar bilan tanishtirish va doimiy ravishda malaka oshirish kurslari orqali metodik tayyorgarlikni mustahkamlash lozim.

Xulosa va takliflar. Tarbiya fanining o'qitilishida shaxsiylashtirilgan va jamiyat bilan bog'liq yondashuvlarni qo'llash, talabalarga ijtimoiy mas'uliyatni his qilish va jamiyatda faol ishtirok etish imkoniyatlarini yaratadi. Oliy ta'lim muassasalarida Tarbiya fani o'qitilishini qaytadan ko'rib chiqish, yangilash, zamonaviy pedagogik metodlar va texnologiyalarni fanga joriy etish orqali talabalarning nafaqat bilim va ko'nikmalarini, balki ularning ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishini ham ta'minlash mumkin.

Maqolada keltirilgan takliflar va metodik yondashuvlar tarbiya fanini o'qitish jarayonini yanada samarali va sifatli qilishga yordam beradi. Oliy ta'lim tizimida Tarbiya fanini o'qitishning rivojlanishi, uning samaradorligini oshirish kelajakda o'quv jarayonining sifatini sezilarli darajada yaxshilashga olib keladi.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish, mazkur jarayonni tarbiya fani misolida amalga oshirish muammosi bugungi kungacha maxsus tadqiqot objekti bo'lgan emas va o'z yechimini kutayotgan dolzarb masaladir.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish, kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish masalalarining ko'p jihatdan nazariy yoritilishiga qaramay, jamiyat, fan va ta'limning yangi yo'nalishlari, talab va ehtiyojlari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish zaruriyatini kuchaytiradi.

ADABIYOTLAR

1. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
2. <https://lex.uz/docs/4545884>
3. <https://lex.uz/docs/-3171590>
4. <https://lex.uz/docs/3765586>
5. https://uz.fundamental-economic.uz/?page_id=1288
6. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabr o'Rq-637-son "ta'lim to'g'risidagi" qonuni. <https://lex.uz/docs/5013007>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 iyunidagi PF-6017-son "o'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi Pq-3151-son "oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 iyunidagi PF-6017-son "o'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" Pq-4623-son qarori. <https://lex.uz/docs/4749364>
11. O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi "umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 422-son qarori. <https://lex.uz/docs/-4885018>
12. D.SH.Nafasov. "Tarbiya" fanini o'qitish metodikasi. tarboya nazariyasining umumiy xususiyatlari // Экономика и социум. №5 (120) -2.2024. 477-480 betlar.
13. Abdullayeva B.S va boshqalar "Boshlang'ich ta'limda tarbiya fani" darslik. Toshkent-2022. 268 bet.